

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN PUSHTU TILI FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi pushtu tili fanidan o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiya malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonini va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta’minlash, talabgorlarning pushtu tili fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi

1. Pashtu yozuv tizimi.
2. Leksika – kundalik hayotga oid lug‘at, sinonimlar, antonimlar, frazeologik birliklar.
3. Morfologiya – so‘z turkumlari va grammatik birliklar.
4. Sintaksis – gap tuzilishi, gap bo‘laklari, gap turlari.
5. Gapni o‘qib tushunish.
6. Yozma nutq – grammatika asosida fikr bayon qilish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1. Pashtu yozuv tizimi	Pashtu alifbosi, yozuv qoidalari va imlo normalari.	Pashtu harflarini, ularning yozuv shakllarini va talaffuzga mos kelishini tushunadi. Soʻzlarni yozishda alifbo va imlo qoidalarini toʻgʻri qoʻllay oladi. Yozuvdagi grafika va orfoepiya oʻzaro bogʻliqligini izohlay oladi.	10 %	4
2. Leksika	Pashtu leksik tizimi va semantik munosabatlar.	Kundalik hayotga oid soʻz va iboralarni tanlay oladi va ularni kontekstga mos qoʻllay oladi. Sinonim va antonim soʻzlarni ajrata oladi, frazeologik birliklarning maʼnosini tushunadi va ularni matn ichida toʻgʻri ishlatadi. Soʻzlarning kontekstdagi semantik farqlarini tahlil qila oladi.	20 %	8
3. Morfologiya – soʻz turkumlari va grammatik birliklar	Pashtu morfologiyasi va grammatik birliklar.	Soʻz turkumlarini (feʼl, ot, sifat, olmosh, ravish, koʻmakchi) va ularning grammatik kategoriyalarini farqlay oladi. Feʼlning zamon, shaxs, birlik-koʻplik va shaxssiz shakllarini, ot va sifatning shakl va kategoriyalarini tahlil qila oladi. Morfologik va sintaktik oʻzaro bogʻliqlikni tushunadi va grammatik qoidalarni yozma matnda qoʻllay oladi.	25 %	10
4. Sintaksis – gap tuzilishi, gap boʻlaklari, gap turlari	Sintaksis va gap tuzilishi.	Sodda va qoʻshma gaplar, gap boʻlaklari va ularning sintaktik funksiyalarini tahlil qila oladi. Gapning asosiy va ikkinchi darajali boʻlaklarini, vositali va vositasiz toʻldiruvchilarni aniqlay oladi. Gap turini, soʻz tartibini va bogʻlovchilar yordamida sintaktik aloqalarni toʻgʻri baholay oladi.	15 %	6
5. Gapni oʻqib tushunish	Pashtu matnlarni tushunish va tahlil qilish.	Turli janrdagi matnni oʻqib asosiy gʻoya va muhim maʼlumotni ajrata oladi. Muallifning nuqtai nazarini, fikrlar oʻrtasidagi sabab–oqibat munosabatlarini tahlil qila oladi. Matn mazmunini qisqacha yozma tarzda umumlashtira oladi.	15 %	6

6. Yozma nutq – grammatika asosida fikr bayon qilish	Pashtu yozma nutqi va grammatik qo‘llash.	Grammatik qoidalar va so‘z turkumlaridan foydalangan holda yozma matn yaratadi. Fikrlarni mantiqiy izchillik bilan yozadi, jumla va paragraf tuzilishini to‘g‘ri qo‘llaydi. Matn mazmunini aniq, izchil va kommunikativ maqsadga mos tarzda ifoda eta oladi.	15 %	6
Jami			100	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi. Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. R. Inomkhojayeve Pashto. An Elementary Textbook. Georgetown University Press, 2011.
2. R. Inomkhojayeve Pashto. An Intermediate Textbook. Georgetown University Press, 2015.